

TOSHKENT SHAHAR YASHNAOBOD YUMANIDA 2021-2023-YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISH JARAYONI

Nomozov Nurbek, Jurayev Umarali
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,
MMT 83-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent shahar Yashnabod tumanida 2023-2024 yillarda tashabbusli byudjetlashtirish jarayonida ajratilgan mablag'lar miqdori va amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tashabbusli byudjet, openbudget.uz, tashabbus, ovoz berish, moderatsiya, ishchi komissiya, g'olib loyihani aniqlash, "Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi", shartnoma tuzish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rganish uchun Toshkent shahar Yashnabod tumani misolida 2023-2024-yillarda "Tashabbusli byudjet" loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishib chiqdik.

Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Yashnabod tumanida 2023-2024 yillarda "Tashabbusli byudjet" loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilib chiqamiz.

1-jadval

Toshkent shahar Yashnabod tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori (ming so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2023-yil	2024-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	5 181 560	2 797 930
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	21 576 370	20 528 174
3.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	23 960 000	20 339 034
3.1.	<i>Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'</i>		4 223 730
3.2.	<i>Hisobvaraqlardagi qoldiq</i>		16 115 304
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'	2 797 930	2 987 070

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki 2023-yil yil boshiga qoldiq mablag` 5 181560 ming so'mni, 2024-yil 2 797 930 ming so'mni tashkil qilgan. Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar 2023-yil 21 576 370 ming so'mni, 2024-yil 20 528 174 ming so'mni tashkil etgan.

"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar mos ravishda 2023-yil 23 960 000, 2024-yilda esa 20 339 034 ming so'mni tashkil qildi.

"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'lari 2023-yil 2 797 930 ming so'mni, 2024-yil esa bu ko'rsatkich 2 987 070 ming so'mni tashkil qildi.

Tashabbusli byudjet loyihalari doirasida 2023-2024 yillarda Toshkent shahar Yashnabod tumani da amalga oshirilgan tadbirlarning asosiy qismini umumta'im maktablarini ta'mirlash, sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash, mahalliy ichki yo'llarni ta'mirlash va boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlashga yo'naltirilganligini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Toshkent shahar Yashnabod tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni		Sarflangan mablag' (ming so'mda)	
		2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil
Jami		22	20		
1.	Hududiy ichki yo'llar				
2.	Umumta'im maktablarini ta'mirlash va jihozlash	6	10	5 550 000	8 593 424
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash				
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	15	9	18 210 000	10 385 610
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		1		1 360 000
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash				
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari				
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)				
9.	Boshqa tadbirlar	1		200 000	

Toshkent shahar Yashnabod tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlarda hududiy ichki yo'llarni ta'mirlashga mos ravishda 2023-yil 22 ta

loyiha bo'yicha 23 960 000 ming so'm, 2024-yil uchun 20 ta loyiha 20 339 034 ming so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan.

Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash ishlari bo'yicha 2023-yil 6 ta loyiha 5 550 000 ming so'm, 2024-yil uchun 10 ta loyiha 8 593 424 ming so'm pul mablag'lari maqsadli yo'naltirilgan.

Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash loyihalariga 2023-yil 15ta loyiha uchun 18 210 000 ming so'm, 2024-yilda 9ta loyiha uchun 10 385 610 ming so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan.

Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash, "Tashabbusli byudjet" da g'olib deb topilgan loyihalalariga 2024-yil 1 ta loyiha uchun 1 360 000 ming so'm pul mablag'lari maqsadli yo'naltirilgan.

Endi biz quyidagi 3-jadvalda Toshkent shahar Yashnabod tumanida fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakillanish manbalarini ko'rib chiqamiz.

Toshkent shahar Yashnabod tumani Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakillanish manbalari¹ (ming so'mda)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		2023-yil	2024-yil
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar		9 000 000	11 060 000
Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari			
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar			
Toshkent shahrining shahar byudjetida shakillangan qo'shimcha manbalarining 30% miqdorida ajratilgan mablag'lar		527 400	
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	3 772 796	5 472 800
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	6 186 254	2 644 600
	Iqtisod qilingan mablag'lar	2 089 920	15 774
Jami ajratiladigan mablag'lar		21 576 370	20 528 174

¹ <https://openbudget.uz/boards/reports>

Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar, 2023-yil 9 000 000 ming so'mni, 2024-yilda bu ko'rsatkich 11 060 000 ming so'mni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki 2024-yil 2023-yilga nisbatan tuman mahalliy byudjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foizi qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar 22.8% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Tuman mahalliy byudjeti qo'shimcha manbalarning 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 2023-yil ham 2024-yil ham ajratilmaganini ko'rishimiz mumkin .

Erkin qoldiq mablag'lari 2023-yil 3 772 796 ming so'mni, 2024-yil 5 472 800 ming so'mni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. 2024-yil, 2023-yilga nisbatan 45% ga oshgan.

Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi, 2023-yil 2 089 920 ming so'm, 2024-yil 15 774 ming so'mni tashkil qilgan.

4-jadval

Toshkent shahar Yashnabod tumani tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi²

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlari soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'm)
2023-yil (1va2-mavsumlar)			
1.	31-sonli oilaviy poliklinikasi fasad va tashqi devorlari va xonalarini joriy ta'mirlash	3764	1 200 000
2.	Qon preparatlari PCHK moddiy texnik bazasini rivojlantirish	3539	1 200 000
3.	Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik xizmati Yashnabod tuman bo'limi moddiy texnik bazasini rivojlantirish	2803	1 200 000
4.	255-sonli umumta'lim maktabi hovlisining 1240 kv metr joyini bruchatka qoplamasi bilan qoplash	3425	350 000
5.	Uysozlar maxilla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan 29- sonli oilaviy poliklinikasi filialini mebellar bn jihozlash	2388	850 000
6.	198- sonli maktab hududiga 40 dona ovoqli kamera, 20dona electron doska,4dona JACK tikuv mashinasi va 2dona overloglar bilan taminlash	1990	900 000
7.	227-IDUM bino xonalarini rekonstruksiya qilish ,sport maydonlarini ta'mirlash ,o'quvchilar uchun yo'lakchalar tashkil qilish	1943	1 200 000
8.	61-sonli umumta'lim maktabiga alohida lokal isitish qozonxonasi o'rnatish	1647	700 000

² <https://openbudget.uz/boards/reports>

9.	Toshkent shahar tibbiy diagnostika maslahat markazi DUKning moddiy texnika bazasini mustahkamlash	6306	1 320 000
10.	Toshkent shahar I.Ergashev nomli 4-son SHKSining moddiy bazasini rivojlantirish	5449	1 300 000
11.	Va boshqalar		
2024-yil (1-mavsum)			
1.	Respublika tez tibbiy yordam markazi Toshkent shahar filiali Yashnobod shahobchasi 3 bo'limi binosini joriy ta'mirlash (issiqlik tizimini, elektr-energiya tizimini, suv oqava tizimini ta'mirlash)	9806	1 360 000
2.	30-oilaviy poliklinikaning binosani ta'mirlash, ichki xonalarni ajratish, tashqi hudidini obodonlashtirish, panjaralarni va darvozani almashtirish, issiqlik tizimini qayta ta'minlash.	9504	1 360 000
3.	Shahar 2-son klinik shifoxonasi Yashnobod tumani Shirinobod maxallasi O'sh ko'chasi 6a-uyda joylashgan bo'lib 150 o'ringa ega. Shifoxona binosi 1964-yil qurilgan, mukammal ta'mirlash ishlari olib borilmagan. Toshkent shahar bo'yicha yoshi ulug, faxriy nuroiylar, urush qatnashchilari va baynalminal urushda qatnashgan bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Fuqarolarni ayniqsa yoshi ulug' nuroniylarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning sog'lomlashtirishda qulay shart sharoit yaratish maqsadida, shifoxonaning 3, 2 va 1 qavatlarni joriy ta'mirlash, shu bilan birga mazkur qavatlarda elektr jixozlarini, san texnika qismini o'rnatish va ta'mirlash zarur.	8645	1 360 000
4.	27-Oilaviy poliklinika binosi 1961-yil kurilgan bo'lib hozirgi kunda Poliklinika binosi Joriy tamirga muxtoj. ta'mirlash kuzda tutilgan joylar binoning tom kismi, tashqi qismi, suv oqava tizimi, xona va yulaklarni, xonalarga kirish eshiklarni xamda elektr tizimini va binoga kirish qismi (pandus) joriy ta'mirlash zarur.	6578	1 360 000
5.	255-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	5869	708 000

6.	Toshkent shahar Sog'liqni saqlash bosh boshqarmasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	5231	582 200
7.	Yashnabod tumanidagi "Ishga marhamat" Monomarkaz hududida Ko'zi ojiz insonlar uchun Brayl alifbosida kitob chop etish tipografiya uskunalarini xarid qilish.	4986	1 360 000
8.	Sanitariya Epidemiologiya Osoyishtalik Markazi Yashnabod tumani bo'limining Binosining ichki xonalarini joriy ta'mirlash hamda issiqlik tizimini to'liq (qayta) ta'mirlash va binoni elektr tarmog'ini qayta to'liq ta'mirlash.	4652	1 000 000
9.	Yashnabod tumani Tibbiyot Birlashmasi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	4158	1 215 000
10.	32-son Oilaviy poliklinikasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	3967	828 410
11.	Va boshqalar		

Toshkent shahar Yashnabod tumanida tashabbusli budjetlashtirish natijasida 2023-yili jami 22 ta loyiha g'olib deb topilib ularga 23 960 000 ming so'm pul mablag'lari sarflandi, 2024-yil 20 ta loyihalar "Tashabbusli byudjet" loyihasi g'olibi deb topilib, bu loyihalarni moliyalashtirish uchun jami 20 339 034 ming so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan, Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki "Tashabbusli byudjet" loyihalarining g'olib deb topilganlar, umumta'lim maktablari binolarini ta'mirlash sohasiga, shu jumladan 2023-yilda Yashnabod tumanida 6 ta umumtalim maktabi ta'mirlab, qayta jihozlangan, 15 ta holatda Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash loyihalari va 1ta boshqa tadbirlar loyihalari g'olib deb topilgan 2024-yil 1-mavsumda 22ta ta umumta'lim maktablarini ta'mirlash va qayta jihozlash loyihalari, qolgan loyihalar esa boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash kabi loyihalari bilan g'olib deb topilgan.

Xulosa qilib aytganda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning PQ - 5250 sonli qaroriga asosan 2021-2024 yillar mobaynida amalga oshirilgan "Tashabbusli byudjet" loyihalari borasida amalga oshirilgan islohotlar o'z natijasini berdi. Tashabbusli byudjet loyihalari ijrosini ta'minlashda va bu loyihalarga ovoz yig'ish jarayonida nafaqat chekka chekka hududlarimiz obod bo'lmoqda, balki xalqimizning jipsligi, birdamligi va bir biriga bo'lgan mehri oshmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Malikov T, Kobulov K. Models of market economy formation and Interaction of fiscal policy. International Journal of Economic Growth and Environmental Issues- ISSN.:2321-6247.
2. Malikov T, Byudjet HN. O 'quv qo 'llanma. Toshkent:"Iqtisod-moliya. 2008;84.
3. Malikov T. Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O 'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA. 2007.
4. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
5. N Khaydarov. International experience of the development of tourism in Uzbekistan. Интеграция. Эволюция. Устойчивость: пути развития социально-экономических систем.2021
6. N Khaydarov. Agricultural Development in Uzbekistan: Agricultural Reforms versus Transboundary Water Issues. Developing Country Studies. ISSN, 2015
7. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари.“. InПандемиядан кейинги иқтисодиёт: рисклар, муаммолар, ечимлар” халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
8. МОЛИЯВИЙ САВОДХОНЛИКНИ ОШИРИШГА “ЯШИЛ ЧИРОҚ”–ДАВР ТАЛАБИ. Архив научных исследований. 2020
9. O'roqov U. Tursunova Zulayho Abdujobir qizi. O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko'rsatish kafolat jamg'armasining o'rni.“. Science and Education” Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
10. O'roqov UY, Anvarov NM. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali.
11. Yunusovich OR, Baxtiyorovich MM, Maxmud o'g'li MM. Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari.“. Science and Education” Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
12. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет.
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. U O'roqov, ZAQ Tursunova. O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko'rsatish kafolat jamg'armasining o'rni. Science and Education, 2022.
15. Уроков УЮ. К, ишлок хужалиги субъектларини солиқ имтиёзлари орқали рафбатлантириш. Иқтисодиёт ва таълим. 2015;12.
16. Yunusovich OR. Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati.“. Science and Education” Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017

19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар.“. InЎзбекистоннинг халқаро молия тизимига интеграциялашувни кучайтириш йўллари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
20. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи курсаткичлар. Молия-кредит тизимининг иктисодиётнинг реал сектори билан узаро муносабатларини институционал ривожлантириш" мавзусидаги халқаро. 2020.
21. Уроков У. Мах, аллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари. Science and Education. 2022 Jun;6.
22. Уроков УЮ, Юлдашева НВ. Пути повышения финансовой самостоятельности местных бюджетов Республики Узбекистан. Интернаука: электрон. научн. журн. 2022;3:226.
23. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
24. НВ Юлдашева. Типология моделей межбюджетных отношений. Вестник науки и образования, 2016. №6, стр.64-66
25. Юлдашева Н.В Бабаева Ш.С. Специфика организации государственной финансовой поддержки субъектов малого бизнеса в Республике Узбекистан. Интернаука, 2022
26. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиклигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
27. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари.“.2017
28. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ. 2022.
29. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. InРеспублика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
30. Ғайбуллаев О, Ўроқов У. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни.2016
31. Хайдаров Н. Иктисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари. Иктисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. 2003.
32. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари.“. InЎзбекистон Республикасида ташаббусли бюджетлаштиришнинг хусусиятлари ва ривожланиш истиқболлари” мавзусида халқаро илмий-амалий конференция 2022.